



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№6(3)

2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 246 sahifa,  
9-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

O'zbek bolalar folklorining etnopsixologik jihatlarini o'rganishning ahamiyati.....	10
<i>Alimbayeva Shaxlo Tursunovna</i>	
The Convergence of Educational Paradigms: Policy Borrowing, Adaptability, and Institutional Reform in Uzbekistan's Modern School System .....	15
<i>Lola Rakhmonovna Djurakulova, Karina Eduardovna Bushevskaya</i>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida valeologik kompetensiyalarni rivojlantirish .....	21
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li, Mamatqulov Davronbek Abdig'apparovich</i>	
Autizm spektridagi buzilishlarga ega bolalar rivojlanishida STEAM ta'lim texnologiyasining pedagogik ahamiyati.....	25
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Zuhra Adizovna</i>	
Ozodlikdan mahrum qilingan shaxsning jazoni ijro etish muassasasidagi moslashuvining psixologik xususiyatlari .....	30
<i>Saydullayeva Muxabbat Abdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati.....	33
<i>Shodiyeva Gulruh Xayrullayevna, Ergasheva Farog'at</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida gamifikatsion topshiriqlar asosida divergent fikrlashni shakllantirishning didaktik mexanizmlari.....	37
<i>Jalilov Muhammadali Abdumutalibovich, Saloydiovva Sevaraxon Mahammadsharif qizi</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish .....	41
<i>Sayfiddinova Muxlisa Sayfiddinovna</i>	
Harbiy xizmatchilar oilalarida inqirozlarni profilaktika qilishda ijtimoiy-psixologik xizmatlarning o'rni .....	45
<i>Sh. S. Kurbanova</i>	
Yosh onalarning pedagogik kompetensiyalariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar .....	49
<i>Yuldasheva Zulayxo Sadullayevna</i>	
Роль нарративно-экспозиционной терапии при работе с детьми, репатрированными из ЗОН вооружённых конфликтов .....	53
<i>Юлдашев Санжар Рузимуродович</i>	
Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar: muammo va uning yechimlari.....	57
<i>Mamatova Karomat Ilhomjonovna</i>	
Bitiruvchi sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish jarayonlarida individual yondashuvning ahamiyati ...	61
<i>Asilova Sanobar Xatamboyevna</i>	
Optika bo'limini o'qitishning didaktik asoslari.....	66
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Shomurodova Maftuna Tolibjon qizi, Rayimova Muazzam Xolbobo qizi</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarida kompyuter grafikasiga oid kompetensiyalarni rivojlantirish uchun Gamified Project-Based Learning asosidagi integrativ metodika ishlab chiqish .....	69
<i>D. Y. Pulatova, G' R. Berdiyev</i>	
Psixologik savodxonlikning o'smirlar akademik savodxonligiga ta'siri.....	76
<i>Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika darslarida loyihaviy ta'limni qo'llashning pedagogik asoslari .....	81
<i>Ismonov Turgunpulat To'liqinovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiatga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda mashg'ulot, ekskursiya va sayrlardan foydalanish metodikasi.....	84
<i>Maripova N. X.</i>	
Individual yondashuvga asoslangan pedagogik mexanizmlarni amaliyotga joriy etish metodikasi .....	88
<i>Nurova Malika Abduzairovna</i>	



Communicative Learning as a Basis for Critical Thinking Development .....	92
<i>Petrosyan Nelya Valerevna, Khalilova Farangiz Khoshimovna</i>	
Nikohdan oldingi hissiy-emotsional kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik omillari .....	97
<i>Raximova Gulxayo Alisherovna</i>	
Talabalarda chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati .....	100
<i>Shaalimov Muxtorsha Atxamovich</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ertaklar orqali tarbiya berish usullari .....	105
<i>X. Sh. Ochilova</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol ta'lim texnologiyalarining samaradorligi .....	109
<i>Xalilova Dilnoza Furkatovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kitobxonlik madaniyatini kreativ yondashuvlar asosida shakllantirish imkoniyatlari .....	112
<i>Xolyigitova Bahoroy Kimsanboyevna</i>	
Bo'lajak buxgalleriya hisobi va audit sohasidagi talabarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari .....	117
<i>Arziyeva Visola Namozovna</i>	
Boshlang'ich ta'lim mazmunini tizimlashtirishning didaktik va aksiologik tamoyillari .....	121
<i>Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna</i>	
Munis Xorazmiy devonining o'rganilishi va uning tarixiy-etimologik tahlili .....	125
<i>Sharopova Durdona Azim qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida pedagogik kompetensiyalarni takomillashtirish asoslari .....	129
<i>Tashmatova Gulzoda</i>	
Maktabgacha ta'limda steam yondashuvining didaktik imkoniyatlari .....	133
<i>To'xtaboyeva Maftunaxon G'aniyevna</i>	
Raqamli pedagogikaning zamonaviy ta'lim rivojlanishidagi o'rni .....	137
<i>Tojiyeva Asila Abdimannon qizi, Pardayeva Ra'no Eshboyevna</i>	
Talabalar jamoasida uchraydigan nizoli vaziyatlarning diagnostik tahlili .....	142
<i>Vaxobova Muxtabar Nurmuhimmat qizi</i>	
Kreativ yondashuv asosida talabalarining kasbiy sifatlarini shakllantirish .....	146
<i>Xolmatova Gulhayo Ulug'bekovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasining psixologik asoslari .....	151
<i>Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna</i>	
Umumta'lim maktab direktorlarining boshqaruv samaradorligini oshirishda media va axborot savodxonligini rivojlantirish modelini takomillashtirish .....	156
<i>Abdulxakimova Ziyoda Latibjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsda muammoli STEAM loyihalarini yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish .....	161
<i>M. S. Achilova</i>	
Optik tushunchalarni shakllantirish metodikasi .....	165
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Cho'liyeva Sofiya Sobirjon qizi, Shog'dorova Moxinur Bobomurot qizi</i>	
PHET simulyatsiyalari yordamida optikani o'rgatish .....	169
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Toshmirzayeva Buvioysha Panji qizi, Ruziyeva Jasmina Sirojiddin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy fikrlashini o'ziga xos jihatlari .....	173
<i>Gafurova Shoxista Erali qizi</i>	
O'zbekiston hududlarida yengil atletika infratuzilmasi va sportchilar tayyorlash tizimini tashkiliy-boshqaruv asoslari .....	178
<i>Hakimova Mushtariybonu Hamidovna, Tursunpolatova Ziyoda Jahongir qizi</i>	
O'zbekistonda mustaqil fikrlash muammosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili .....	181
<i>Tursunova Dilbar Zafarovna</i>	

MUNDARIJA	CONTENTS	Methodology for Developing Competencies in Primary Education and the Communicative Analysis of Oral Speech.....	184
		<a href="#">Turumbetova Aygul Yusupbaevna</a>	
		Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "Tarbiya" darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o'rgatish metodikasi.....	189
		<a href="#">Ummatkulova Sayyora Shovkatovna</a>	
		Boshlang'ich sinflarda matematika ta'limini tashkil etish.....	191
		<a href="#">Saydullayeva Shabbona Ashraf qizi, Axtamqul Azamqulov, Anvar Yusupov</a>	
		Metakognitiv xabardorlik ko'rsatgichlarining ta'lim shakliga bog'liqligi.....	195
		<a href="#">Ermatova Robiya Bekjonali qizi</a>	
		The Integration of Artificial Intelligence Technologies in Esp Instruction: Enhancing Professional Communicative Competence in Higher Education.....	199
		<a href="#">Ismailova Shaira Ferdausovna</a>	
		Intercultural Communicative Competence in English Language Teaching: Preparing Global Learners .....	204
		<a href="#">Maqsudova Gulnoz Olimovna</a>	
		Teaching Reading Through Multimodal Texts: Enhancing Comprehension and Engagement in EFL Classrooms.....	208
		<a href="#">Norboyeva Shahnoza Jo'rabek qizi</a>	
		Digital Technologies and Cognitive Competence Development in English Language Teaching.....	212
		<a href="#">Sharipova Muhabbat Erkinovna</a>	
		Raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellektga asoslangan elektron o'quv resurslarini loyihalashning konseptual-pedagogik asoslari va didaktik muammolar tahlili.....	216
		<a href="#">Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Raxmonov Ziyodillo Xusanovich</a>	
		Boshlang'ich ta'limda timss mezonlari: kontekstli muammolarga yondashuv .....	222
		<a href="#">Yo'ldoshev Farhodjon Baxtiyor o'g'li</a>	
		O'qituvchilarning qadriyatlari va stressga barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning psixologik tahlili .....	227
		<a href="#">Yuldashova Dilafuz Shavkatovna</a>	
		Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish pedagogik muammo sifatida .....	229
		<a href="#">Safarova Madina Azamat qizi</a>	
		Социально-психологические особенности отношения студентов к использованию искусственного интеллекта chatgpt в образовательной деятельности.....	233
		<a href="#">Аскарлова Гулрух Оринбасаровна</a>	
		Диалог культур в произведениях русскоязычных писателей Узбекистана XXI века .....	239
		<a href="#">Чернова Татьяна Алексеевна, Отакулов Фолиб</a>	
		Русский язык как пространство межкультурной коммуникации в литературе Узбекистана .....	242
		<a href="#">Чернова Татьяна Алексеевна, Имамов Жавлонбек, Абдурахмонов Элбек</a>	

# O'ZBEK BOLALAR FOLKLORINING ETNOPSIXOLINGVISTIK JIHATLARI

Alimbayeva Shaxlo Tursunovna

Oriental universiteti

“Uzluksiz ta’lim pedagogikasi” kafedrası dotsenti, psixol.f.n.

ORCID: 0009-0004-0766-3779

**Annotatsiya:** Mazkur ilmiy maqola millatning etnopsixologik xususiyatlarini tizimli hamda konseptual jihatdan tadqiq etishga xizmat qiluvchi eng muhim va fundamental manbalardan biri sifatida xalq og'zaki ijodi namunalarining lingvistik tahliliga bag'ishlanadi. Ma'lumki, xalq og'zaki ijodi namunalarida muayyan etnosning etnopsixologik tabiati, o'ziga xos urf-odatları, asriy an'anaları va tarixiy xotiralari chuqur badiiy shakllarda aks etadi. Ushbu maqolada bolalar folklorining etnopsixologik va lingvomadaniy xususiyatlari hamda ularning yosh avlod ruhiy, intellektual hamda ijtimoiy rivojlanishidagi fundamental ahamiyati har tomonlama, fundamental usullar yordamida tahlil qilingan. Tadqiqotning bosh maqsadi xalq og'zaki ijodi namunalarida yaqqol aks etgan milliy etalonlar va hayvonlar timsolidagi turg'un o'xshatishlarni qiyosiy-lingvistik hamda kognitiv jihatdan tizimli va izchil ravishda yoritishdan iboratdir. Maqolada bolalar qo'shiqlari va folklor matnlarida faol qo'llaniladigan erkalash-kichraytirish shakllari bolaning ilk ijtimoiy adaptatsiyasini hamda lingvistik ijtimoiylashuv jarayonini muvaffaqiyatli ta'minlovchi yetakchi omil ekanligi aniq dalillar bilan ilmiy asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada bolalar folklori va matnlarining lingvomadaniy hamda funksional-semantik xususiyatlari nafaqat milliy tilshunoslikda, balki mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ham keng ko'lamda o'rganilganligi tahliliy jihatdan tushuntirib o'tilgan. Maqolaning asosiy ilmiy yangiligi o'zbek va boshqa tillar tizimidagi zoomorfik etalonlarning qiyosiy-mental hamda kognitiv tahlili misolida, aniq lingvistik faktlar va empirik materiallar vositasida ochib berilganligida ko'rinadi. Muallif bolalar folklori shunchaki oddiy badiiy-estetik vosita bo'lib qolmasdan, balki o'sib kelayotgan yosh avlod ongida milliy dunyoqarash ssenariylarini shakllantiruvchi o'ziga xos lingvistik va psixologik mexanizm ekanligini alohida ta'kidlaydi. Tadqiqot davomida chuqur tahlillar natijasida aniqlanishicha, folklor matnlaridagi zoomorfizmlar va milliy-madaniy ramzlar bolaning kognitiv rivojlanish jarayonida o'ziga xos lingvomadaniy belgi va kod vazifasini o'taydi.

**Kalit so'zlar:** bolalar folklori, etnopsixologiya, lingvomadaniyat, ijtimoiy adaptatsiya, zoomorfik etalonlar, kognitiv tahlil, milliy o'zlik.

**Abstract:** This scientific article is devoted to the linguistic analysis of samples of folk oral art as one of the most important and fundamental sources serving for the systematic and conceptual study of the ethnopsychological characteristics of the nation. As is known, samples of folk oral art reflect the ethnopsychological nature of a particular ethnos, its own customs, centuries-old traditions and historical memories in deep artistic forms. This article comprehensively analyzes the ethnopsychological and linguocultural characteristics of children's folklore and their fundamental importance in the spiritual, intellectual and social development of the younger generation using fundamental methods. The main goal of the study is to systematically and consistently illuminate the national standards and stable analogies in the image of animals, which are clearly reflected in samples of folk oral art. The article scientifically substantiates with clear evidence that the forms of affectionate-diminutive forms actively used in children's songs and folklore texts are a leading factor in the successful process of early social adaptation of the child and linguistic socialization. The article also analytically explains that the linguocultural and functional-semantic features of children's folklore and texts have been widely studied not only in national linguistics, but also by local and foreign researchers. The main scientific novelty of the article is the comparative-mental and cognitive analysis of zoomorphic standards in the Uzbek and other language systems, revealed using specific linguistic facts and empirical materials. The author emphasizes that children's folklore is not just a simple artistic-aesthetic tool, but also a unique linguistic and psychological mechanism that forms national worldview scenarios in the minds of the growing younger generation. As a result of in-depth analysis during the study, it was found that zoomorphisms and national-cultural symbols in folklore texts serve as a unique linguistic and cultural sign and code in the process of a child's cognitive development.

**Key words:** children's folklore, ethnopsychology, linguistic culture, social adaptation, zoomorphic standards, cognitive analysis, national identity.



**Аннотация:** Данная научная статья посвящена лингвистическому анализу образцов народного устного искусства как одного из важнейших и фундаментальных источников, служащих для систематического и концептуального изучения этнопсихологических характеристик нации. Как известно, образцы народного устного искусства отражают этнопсихологическую природу конкретного этноса, его собственные обычаи, многовековые традиции и историческую память в глубоких художественных формах. В статье с помощью фундаментальных методов всесторонне анализируются этнопсихологические и лингвокультурные особенности детского фольклора и их фундаментальное значение в духовном, интеллектуальном и социальном развитии молодого поколения. Главная цель исследования – систематическое и последовательное освещение национальных норм и устойчивых аналогий в образе животных, которые четко отражены в образцах народного устного искусства. В статье научно и убедительно доказывается, что формы ласково-уменьшительных падежей, активно используемые в детских песнях и фольклорных текстах, являются ведущим фактором успешного процесса ранней социальной адаптации ребенка и языковой социализации. В статье также аналитически объясняется, что лингвокультурные и функционально-семантические особенности детского фольклора и текстов широко изучались не только в национальной лингвистике, но и местными и зарубежными исследователями. Главная научная новинка статьи – сравнительно-психологический и когнитивный анализ зооморфных норм в узбекском и других языковых системах, выявленный с использованием специфических лингвистических фактов и эмпирических материалов. Автор подчеркивает, что детский фольклор – это не просто художественно-эстетический инструмент, а уникальный лингвистический и психологический механизм, формирующий сценарии национального мировоззрения в сознании растущего молодого поколения. В результате углубленного анализа в ходе исследования было установлено, что зооморфизмы и национально-культурные символы в фольклорных текстах служат уникальным лингвистическим и культурным знаком и кодом в процессе познавательного развития ребенка.

**Ключевые слова:** детский фольклор, этнопсихология, лингвистическая культура, социальная адаптация, зооморфные эталоны, когнитивный анализ, национальная идентичность.

## KIRISH

Katta ijtimoiy guruhlar psixologiyasini tadqiq etish guruh a'zolarining soni ko'pligi hamda insonlarning xilma-xilligi nuqtai nazaridan muayyan murakkabliklarga ega. Shunga qaramay, millatning etnopsixologik xususiyatlarini tizimli tadqiq etishga xizmat qiluvchi muhim va fundamental manbalar mavjud bo'lib, ulardan birinchisi xalq og'zaki ijodidir. Xalq og'zaki ijodi namunalari muayyan etnosning etnopsixologik tabiati, urf-odatlarini, an'analari va tarixiy xotiralari chuqur aks etadi. Ular xalqning milliy mental xususiyatlarini tizimli o'rganishda hamda lingvomadaniy qiyofasini shakllantirishda qimmatli ma'lumotlar manbai bo'lib xizmat qiladi.

Bolalar folklori xalqimiz og'zaki ijodining o'ziga xos va ajralmas tarkibiy qismini tashkil etadi. Ushbu tizim o'z navbatida topishmoq, tez aytish, sanamachiq kabi ko'plab o'ziga xos janrlardan tarkib topgan. Kattalar folkloridagi an'anaviy qo'shiq va ertaklar bolalar folklorida mazmunan farzandlar dunyoqarashiga moslashtirilgan holda qayta yaratiladi. Biroq doston, maqol va askiyalar mazmun-mohiyatiga ko'ra nisbatan murakkab hayotiy muammolar hamda ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lganligi sababli bolalar folklori repertuarida deyarli uchramaydi. Mazkur tadqiqotning maqsadi bolalar folklori vositasida uzatiluvchi lingvomadaniy va etnopsixologik timsollarni aniqlash hamda ularning bola shaxsi shakllanishidagi o'rnini baholashdan iboratdir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bolalar folklori va matnlarining lingvomadaniy hamda funksional-semantik xususiyatlari mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilgan. Xususan, G. Azatova Xorazm bolalar folklori leksikasini tadqiq etar ekan, undagi lingvomadaniy birliklar millatning madaniy identikligini ta'minlovchi asosiy vosita ekanligini ta'kidlaydi <sup>[1]</sup>. Psixolingvistik jihatdan bolalar nutqining shakllanishi va unda folklorning o'рни B. J. Eshboltaev tomonidan o'rganilgan bo'lib, unda bola nutqiy rivojlanishida milliy manbalarning o'рни yuqori baholangan <sup>[4]</sup>.

Etnopsixologik jihatdan o'zbek mentalitetining o'ziga xos xususiyatlari B. M. Botirov tadqiqotlarida o'z aksini topgan bo'lib, unda milliy obrazlar va tizimli taqqoslarning psixologik asoslari ochib berilgan <sup>[2]</sup>.

Shuningdek, rus tilidagi turg'un o'xshatishlarning madaniy markirovkalangan mazmuni L. Boyko tomonidan lingvomadaniy nuqtai nazardan tahlil qilingan <sup>[3]</sup>.

Mazkur ishlardan farqli ravishda, ushbu maqolada bolalar folklori tarkibidagi badiiy qo'shiqlar va zoormorfik (hayvonlar) obraziga asoslangan lingvistik birliklar sintagmatik hamda psixologik jihatdan yaxlit holda va qiyosiy jihatdan tahlil etiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani yozish jarayonida tilshunoslik va psixologiya fanlarining tutash nuqtalarida shakllangan qiyosiy-taqqoslash, kontent tahlil, lingvomadaniy va tavsifiy metodlardan foydalanildi. Xalq og'zaki ijodi namunalari, xususan, bolalar qo'shiqlari va maqollaridagi leksik birliklarning semantik maydoni qiyosiy tahlil usuli

orqali o'rganildi. O'zbek milliy tafakkuridagi hayvonlar timsoli (zoomorf timsollar) rus va ingliz tillaridagi muqobil variantlar bilan solishtirildi.

Bu esa har bir millatning atrof-muhitni idrok etishdagi o'ziga xos etnopsixologik qarashlari va lingvoma-daniy modellarning farqli jihatlarini aniqlash imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Folklor matnlaridagi erkalash-kichraytirish shakllari va emotsional bo'yoqdor so'zlar bolaning ruhiy va intel- lektual rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ular bola ongida "o'ziniki" va "begona" tushunchalarini anglashga, o'z xalqining madaniy timsollarini tizimli tushunishga yordam beradi. Leksik birliklarning tahlili shuni ko'rsa- tadiki, bolalar folklori jamiyatdagi ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazuvchi asosiy va yetakchi vositadir. So'zlar orqali uzatiladigan mantiqiy va psixologik modellar bolani jamoaviy yashashga, milliy an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Bolalar qo'shiqlari ham o'ziga xos lingvopoetik farqlarga ega bo'lib, ular ko'pincha faol o'yin va jismoniy harakatlar bilan uyg'unlikda aytiladi. "Boychechak", "Oftob chiqdi olamga", "Oq terakmi, ko'k terak", "Chittigul", "Laylak keldi, yoz bo'ldi", "Yomg'ir yog'aloq" kabi o'nlab qo'shiqlar bolalar ijrosining asosini tashkil etadi. Ushbu qo'shiqlarning aksariyati tabiat hodisalari va yil fasllari bilan bevosita bog'liqdir.

Professor O. Safarov bolalar folklorining taniqli mutaxassisi sifatida juda ko'p qo'shiq namunalari yozib olgan va tizimlashtirgan. Ana shu asarlar qatorida quyidagi lirik parchalarni keltirish mumkin <sup>[7]</sup>:

*Laylak keldi, yoz bo'ldi,  
Qanoti qog'oz bo'ldi.  
Laylak boradi toqqa,  
Quloqlarida halqa.  
Halqani op qochaylik,  
El boshiga sochaylik.  
Ening murodi kulsin,  
Laylak balandroq uchsini.*

Bolalar qo'shiqlari bulbul, chumchuq, qirg'iy, qarg'a, kaklik, musicha kabi qushlarga hamda echki, qo'zi, quyon, it kabi hayvonlarga atab to'qilgan lirik va didaktik parchalardan iboratdir:

*Ag'am-bag'am tishini ko'rdim,  
Yugurganda tilini ko'rdim.  
U chopardi dukur-dukur,  
Quyoni ekan, harom o'lgur <sup>[5]</sup>.*

O'zbek bolalar folklorida chorvachilik, xususan, qo'y va qo'zichoq timsollari eng sevimli zoomorfik etalon- lardan hisoblanadi. Ular matnlarda mehribonlik, yuvoshlik va go'zallik ramzi sifatida tasvirlanadi.

### 1. "Chit-chit edi, chit edi..." (sanoq va o'yin aytimi)

Bolalar o'yin boshlashdan oldin chek tashlash (sanoq) o'yinlarida qo'y va qo'zini tabiat manzaralari bilan bog'lab aytishadi. Bu matnda zoomorfik elementlar bolaning kognitiv tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi:

*Chit-chit edi, chit edi,  
Ko'k chiyroning iti edi.  
Qo'y g'allasi tog'da edi,  
Qo'zichog'i bog'da edi.  
Cho'pon kelib qichqirdi,  
Qo'y-qo'zilar baqirdi.  
Bo'ri kelib bo'g'izladi,  
Qora itim o'g'izladi.*

### 2. "Qo'zichog'im, ma-ma..." (lirik ovutmachog)

Kattalar tomonidan bolani erkalashda yoki bolalarning o'zaro o'yinlarida duduqlanishni bartaraf etish, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatuvchi onomatopoeitik (tovushga taqlidiy) janrdagi qo'shiq:

*Qo'zichog'im, ma-ma,  
Quloqlari shama.  
O't beray deb yugursam,  
Onasidan qolma.*



Oq qo'zichoq, yuvoshim,  
 Sirdoshim-u tengdoshim.  
 Senga bersam ko'k maysa,  
 Sen ham menga ma-ma de.

### 3. "Chorvadorlar qo'shig'i" (Mavsumiy-maishiy folklor)

Bolalar bahor faslida dalada chorva boqqanlarida yoki suruv ortidan yugurganlarida aytadigan o'ynoqi qo'shiqlaridan biri:

Qo'yim keldi maysadan,  
 Qo'zim o'tdi saylardan.  
 Cho'pon buva, hushyor bo'l,  
 Bo'ri kelar qirlardan.  
 Oq qo'yim-ov, semiz qo'y,  
 Quyruq'i bor egiz qo'y.  
 Kuz kelsa to'ylar qilib,  
 Sening bilan beramiz to'y.

Ushbu qo'shiqlardagi "qo'zichoq" obrazi bolaga nisbatan qo'llaniladigan eng birinchi erkalash-kichraytirish shakllaridan biridir. Bolaning o'zi ham ramziy ma'noda "qo'zim" deb chaqirilishi uning tabiat va jamiyat o'rtasidagi uyg'unligini ta'minlaydi.

O'zbek milliy mentalitetida o'z farzandini "qo'zim, qo'zichog'im" deb erkalash, o'g'il ko'rish istagida Yaratgandan "qo'chqorday" o'g'il berishini so'rash, kundalik hayotda esa "qo'ydek yuvosh bo'l, otday yugurik" kabi maqol va iboralardan foydalanish keng tarqalgan. Ushbu o'xshatishlarning ortida ijobiy va yuvoshlik ramzi sifatida "qo'zi, qo'y" timsoli turadi [3]. Ayni qo'y obrazli o'xshatish etalonida o'zbekcha milliy-madaniy qarash va etnopsixologik tasavvur yorqin aks etgan. Ammo bunday o'xshatish etaloni boshqa milliy madaniyatlarda mavjud bo'lsa-da, ularda bu timsol yuvoshlik emas, balki mutlaqo boshqa belgilar uchun o'lchov hisoblanadi. Masalan, rus tilida qo'y etaloni, asosan, "qo'rqqoqlik" yoki "injiqlik, qaysarlik" belgisi uchun o'xshatish o'lchovi sifatida turg'unlashgan bo'lib, bu o'ziga xos milliy-madaniy nigoh mahsulidir [4].

Quyida o'zbek milliy mentalitetida hayvonlar timsolining etnopsixologik assotsiatsiyasi keltirib o'tdik (1-jadval).

1-jadval

№	Hayvon / Qush timsoli (Etalon)	O'zbek mentalitetidagi etnopsixologik assotsiatsiyasi
1	<b>Sher, burgut, lochin, shunqor</b>	Mardlik, dovyuraklik, botirlik va jasurlik ramzi
2	<b>Tuya</b>	Kuchlilik, chidamlilik; ba'zi hollarda takabburlik ramzi
3	<b>Eshak, xo'kiz</b>	Befahmlik, befarosatlik, qaysarlik va dangasalik
4	<b>Echki, tulki</b>	Ayyorlik, yengiltabihtlilik va yolg'onchilik ramzi
5	<b>It, bo'ri</b>	Ochko'zlik, qonxo'rlik va zolimlik timsoli
6	<b>Quyvon</b>	Qo'rqqoqlik va zaiflik ramzi
7	<b>Qulon</b>	Sergaklik, xushyorlik va aqllilik belgisi
8	<b>Chumoli</b>	Mehnatkashlik va mazlumlik timsoli
9	<b>Qurbaqa</b>	Ishyoqmaslik, dangasalik va maqtanchoqlik
10	<b>Qarg'a, quzg'un</b>	Bag'ritoshlik va qora niyatlilik belgisi

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, ba'zan turli xalq va madaniyatlarda bitta hayvon bir xil turg'un o'xshatish timsoli (etaloni) sifatida qo'llanishi ham mumkin. Masalan, bir-biridan mutlaqo farqli madaniyatlarda ham tulki timsolidan ayyorlik va yolg'onchilik ramzi sifatida foydalaniladi. G'arb va slavyan madaniyatlarida, jumladan, ingliz va rus tillarida "as false as a fox", "хитрый как лиса" turg'un o'xshatishlarining mifologik manbalarga asoslanishini ko'rish mumkin [8].

Qadimgi tasavvurlarga ko'ra, tulki jodugar hisoblangan hamda unda g'oyib bo'lish qobiliyati mavjud deb ishonilgan. O'zbek xalq tafakkurida tulkinging ayyorlik sifati, asosan, uning tabiatdagi tutqich bermasligi va chaqqonligini e'tiborga olgan holda hamda turli lingvomadaniyatlarning tarixiy ta'siri natijasida shakllangan.

Demak, bolalar qo'shiqlarida uchraydigan hayvon obrazlari ham tasodifiy bo'lmay, o'zbek xalqiga xos bo'lgan milliy etalonlarni keyingi avlodga uzatish, milliy qadriyatlarni singdirish vazifasini bajaradi.

**XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, o'zbek bolalar folklorining leksik-semantik maydonini o'rganish o'zbek tili tarixiy taraqqiyotining hududiy va psixologik manzarasini tiklash imkonini beradi. Etnopsixologik xususiyatlarni o'rganishda folklor eng muhim ahamiyat kasb etuvchi omillardan biridir. Xalqning butun kecmishi, uning xohish-istaklari, orzulari, fikr va tuyg'ulari hamda ko'p asrlik hayotiy tajribalarini o'z ichiga olgan folklor materiallari shu millatning psixologik qiyofasini anglashga xizmat qiladi.

Mazkur yo'nalishdagi izlanishlar kelajakda quyidagi amaliy vazifalarni hal etishga yordam beradi:

1. Folklor matnlarining tizimli izohli va lingvomadaniy lug'atlarini yaratish;
2. Ona tili va adabiyot ta'limi metodikasini milliy manbalar, xalq qo'shiqlari va matallar asosida yanada boyitish;
3. Madaniy antropologik va etnopsixologik sohalardagi yangi nazariy qarashlarni shakllantirish.

Zero, til o'z tarkibidagi barcha mikrotuzilmalar va folklor durdonalari bilan saqlanib qolar ekan, millatning madaniy o'zligi va tarixiy xotirasi ham mustahkam bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Azatova, G. (2026). Xorazm bolalar folklori leksikasining funksional-semantik tadqiqi va madaniy identitet masalasi. *Science Time*, 4(5/2), 47–50.
2. Botirov, B. M. (2011). O'zbek mentalitetining psixologik xususiyatlari. Toshkent: TDPU. 37–45-betlar.
3. Бойко Л. Культурно маркированное содержание устойчивых сравнений русского языка: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2000. – С. 11.
4. Eshboltayev, B. J. (2025). A psycholinguistic study of Uzbek children's speech. *Conference of Modern Science and Pedagogy*, 1(7), 694–696.
5. Jo'rayev, M., Ergashev, R. (2008). O'zbek folklorshunosligi asoslari. Toshkent: Fan.
6. Mahmudov, N., Xudoyberganova, D. (2013). O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati. Toshkent: Ma'naviyat.
7. Safarov, O. (1984). O'zbek bolalar folklori. Toshkent: O'qituvchi.
8. Shomaqsudov, Sh., Shorahmedov, Sh. (1990). Hikmatnoma: O'zbek maqollarining izohli lug'ati. Toshkent.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(3)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.